

QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK

UO‘K(UDC, УДК): 821

TOLSTOY VA TASAVVUF: INSONIYLIK VA ILOHIYLIK TALQINI¹**Xalliyeva Gulnoz Iskandarovna***O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti**Jahon adabiyoti kafedrasini mudiri**filologiya fanlari doktori, professor**E-mail: gulnoz7410@mail.ru.**ORCID ID: 0000-0001-5013-0792***Yusupova Adolat Anvarovna***Stajor o‘qituvchi**O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti**Jahon adabiyoti kafedrasini mudiri**E-mail: adolatyusupova.9688@gmail.com*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Lev Tolstoy ijodida insoniylik va ilohiylik g‘oyalarning badiiy talqini tasavvuf ta‘limoti nuqtayi nazaridan kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda yozuvchining “Tirilish”, “Uch hayot”, “Ota Sergiy”, “Anna Karenina”, “Ilohiylik va insoniylik” asarlari asosida inson ruhiyati, nafs, vijdon, axloqiy tanlov va ma’naviy kamolot masalalari izchil yoritiladi. Ushbu asarlarda qahramonlarning ichki iztiroblari, ruhiy izlanishlari hamda o‘zligini anglash jarayoni badiiy vositalar orqali ochib beriladi. Shu bilan birga, mazkur g‘oyalar tasavvufdagi ishq, tavba, zuhd va ma’rifat tushunchalari bilan qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Ayniqsa, insonning nafsni yengish, qalb pokligi va ezgulik sari intilishi masalalari alohida e’tibor markazida bo‘ladi. Tadqiqot natijalari Tolstoy qarashlarining umuminsoniy ma’naviy qadriyatlar bilan uyg‘unligini, shuningdek, uning ijodi tasavvufiy tafakkur bilan yaqin aloqada ekanini ko‘rsatadi.

KALIT SO‘ZLAR

Tolstoy, tasavvuf, insoniylik, ilohiylik, nafs, ma’naviy poklanish, muhabbat, zuhd, ma’rifat, axloqiy falsafa, ruhiy kamolot, vijdon, axloqiy tanlov, ichki kurash, e’tiqod, ruhiy izlanish, komil inson, tavba, sabr, ilohiy haqiqat.

Received: December 14, 2024**Accepted:** December 25, 2024**Available online:** March 1, 2025

¹ For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Xalliyeva G., Yusupova A. Tolstoy va tasavvuf: insoniylik va ilohiylik talqini.// Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 1. — B. 5-14.

TOLSTOY AND SUFISM: THE INTERPRETATION OF HUMANITY AND THEOLOGY

Khallieva Gulnoz Iskandarovna

Uzbek State University of World Languages

Head of the Department of World Literature

Doctor of Philological Sciences, Professor

E-mail: gulnoz7410@mail.ru

ORCID ID: 0000-0001-5013-0792

Yusupova Adolat Anvarovna

Internship teacher

Uzbek State University of World Languages

Department of World Literature

E-mail: adolatyusupova.9688@gmail.com

ABSTRACT

This article analyzes the works of Leo Tolstoy from the perspective of the artistic interpretation of the ideas of humanity and divinity within the framework of Sufi teachings. The study examines the issues of the human soul, nafs, conscience, moral choice, and spiritual development based on the works “Resurrection,” “Three Deaths,” “Father Sergius,” “Anna Karenina,” and “The Divine and the Human.” These works reveal the inner experiences of the characters, their spiritual quests, and the process of self-realization. In addition, the ideas presented are comparatively analyzed in relation to Sufi concepts such as love, repentance, asceticism, and spiritual knowledge. Particular attention is paid to overcoming the nafs, the purification of the soul, and the striving for goodness. The results demonstrate the harmony of Tolstoy’s views with universal spiritual values and their close connection with Sufi thought.

KEY WORDS

Leo Tolstoy, Sufism, humanity, divinity, nafs, spiritual purification, love, asceticism (zuhd), spiritual knowledge (ma’rifat), moral philosophy, spiritual perfection, conscience, moral choice, inner struggle, faith, spiritual quest, perfect human, repentance, patience, divine truth.

ТОЛСТОЙ И СУФИЗМ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЧЕЛОВЕЧНОСТИ И БОЖЕСТВА

Халлиева Гулноз Искандаровна

Узбекский государственный университет мировых языков

заведующего кафедрой мировой литературы

доктор филологических наук, профессор

E-mail: gulnoz7410@mail.ru.

ORCID ID: 0000-0001-5013-0792

Юсупова Адолат Анваровна

Преподаватель-стажер

Узбекский государственный университет мировых языков

Кафедра мировой литературы

E-mail: adolatyusupova.9688@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье творчество Л. Н. Толстого рассматривается с точки зрения комплексного анализа художественной интерпретации идей человечности и божественности в контексте суфийского учения. В исследовании на основе произведений «Воскресение», «Три смерти», «Отец Сергей», «Анна Каренина», «Божеское и человеческое» последовательно освещаются вопросы человеческой души, совести, нравственного выбора и духовного совершенствования. В этих произведениях раскрываются внутренние переживания героев, их духовные искания, а также процесс самопознания посредством художественных средств. Вместе с тем данные идеи сопоставляются с суфийскими понятиями любви, покаяния, аскетизма и духовного познания. Особое внимание уделяется проблемам преодоления нафса, очищения души и стремления к добру. Результаты исследования показывают гармонию взглядов Толстого с общечеловеческими духовными ценностями, а также близость его творчества к суфийскому мировоззрению.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Толстой, суфизм, человечность, божественность, нафс, духовное очищение, любовь, аскетизм (зухд), познание (маърифат), нравственная философия, духовное совершенство, совесть, нравственный выбор, внутренняя борьба, вера, духовные искания, совершенный человек, покаяние, терпение, божественная истина.

KIRISH

Lev Nikolayevich Tolstoy (1828–1910) jahon adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, uning ijodida inson ruhiyati, axloqiy tanlov va ma’naviy kamolot masalalari markaziy o‘rin egallaydi. Yozuvchi din va axloq masalalariga chuqur qiziqqan mutafakkir sifatida islom diniga hurmat bilan qaragan. islomdagi soddalik, tavhid va ma’naviy poklik g‘oyalari qadrlagan. Tolstoyning fikricha, haqiqiy din tashqi marosimlardan ko‘ra inson qalbidagi poklik, vijdon va yaxshilik bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Shu sababli u islomni tabiiy va hayotga yaqin din sifatida ko‘rgan, hatto ba’zi manbalarda uning hadislarni tanlab, to‘plam tuzishga ham qiziqqani qayd etiladi.

Lev Tolstoy Qozon Universitetida arab-fors (sharq tillari) fakultetini tanlaganining asosiy sababi uning yoshligidan Sharq madaniyati, islom dini va mumtoz adabiyotga bo‘lgan qiziqishi edi; Qozon shahrining o‘zi ham musulmon madaniy muhit markazlaridan biri bo‘lgani uchun bu tanlov tabiiy hisoblangan. U tez orada o‘qishdan ko‘ngli qolib, keyin huquq fakultetiga o‘tgan va umuman universitetni tugallamagan.

ASOSIY QISM

Tolstoy tasavvufni maxsus tizim sifatida o‘rganmagan bo‘lsa-da, uning qarashlari ko‘p jihatdan sufiylik ta’limotiga hamohang bo‘lgan. Xususan, insonning ichki poklanishi, nafsni tiyish, muhabbat va rahm-shafqat orqali kamolga erishish g‘oyalari Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumi kabi shoirlar ijodida bo‘lgani kabi Tolstoy asarlarida ham muhim o‘rin tutadi. U insonning haqiqiy rivoji tashqi qoidalarga emas, balki ichki ma’naviy o‘zgarishga bog‘liq deb hisoblaydi. Hayotining so‘nggi davrida uning soddalikni tanlashi va moddiy boyliklardan voz kechishga intilishi ham tasavvufdagi zohidlik tamoyillariga uyg‘un keladi. Adib asarlarida **insoniylik va ilohiylik** o‘rtasidagi murakkab munosabatlar chuqur falsafiy talqin qilinadi. Bu borada rus adabiyotshunosligida ayrim izlanishlar mavjud, ammo ular tasavvufga bog‘lanmagan (Кузнецова, 2016, 94-96; Печурова, 2014, 118–121).

Kuzatishlarimiz asosida Tolstoyning ruhiy izlanishlari va ichki poklanish g‘oyalari tasavvuf ta’limoti bilan ma’lum darajada uyg‘un ekanligini ko‘rsatdi. Tasavvufda inson nafsni tiyish, qalbni poklash va ilohiy haqiqatga yetishish yo‘lida ruhiy kamolot sari intilsa, Tolstoy asarlarida ham aynan shu yo‘nalish - insonning ichki o‘zgarishi va ma’naviy yuksalishi asosiy mavzu sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan yozuvchi ijodini tasavvufiy qarashlar bilan qiyosiy o‘rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tolstoy ijodi inson ma’naviyatining chuqur qirralarini ochib berishga va hayotiy ma’nolarni teranroq anglashga qaratilgan. Uning asarlarida insoniylik va ilohiylik g‘oyalari nafaqat real hayotiy voqealar orqali, balki tasavvufiy ta’limot

nuqtayi nazaridan ham tadqiq qilishga arziydi. Tolstoy romanlarida inson ruhiyati, axloqiy tanlov va ma'naviy poklanish masalalari chuqur tahlil qilinadi. Adib qarashlari ko'p jihatdan tasavvuf falsafasi bilan yaqinlik kasb etadi. Tasavvufda ham asosiy e'tibor nafs va ruh tarbiyasiga qaratiladi (Бертельс, 1965, 45).

Lev Tolstoyning **“Ilohiylik va insoniylik”** (“Божевское и человеческое”) hikoyasi yozuvchining axloqiy-falsafiy qarashlarini mujassam etgan muhim asarlardan biridir (Гудзий, 1957). Ushbu hikoyada inson tabiati, uning ichki ziddiyatlari va ilohiy haqiqatga munosabati badiiy shaklda yoritiladi. Mazkur asarni tasavvuf nuqtayi nazaridan tahlil qilish, undagi asosiy g'oyalari - nafs, ilohiy nur, muhabbat va ruhiy kamolot tushunchalarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Asar qahramoni Svetlogub nohaq qamalanganiga qaramay, o'z qalbida nafrat va kek saqlash o'rniga, ichki ma'naviy yuksalish yo'lini tanlaydi. Qamoqxonada muqaddas kitoblarni o'qish orqali haqiqiy kuch inqilobiy kurashda emas, balki muhabbat va kechirimlilikda ekanini tushunadi. Uni o'limga olib ketayotganlarida, u o'zini qatl etuvchilarga g'azab qilmaydi. Aksincha, ularga rahmi keladi va chin dildan kechiradi. Uning nazarida, ular nima qilayotganlarini bilmaydigan baxtsiz kimsalardir. Svetlogub jismoniy o'limga mahkum etilgan bo'lsa-da, ruhiy jihatdan g'olib bo'ladi. U qo'rquvni yengib, ilohiy xotirjamlikka erishadi. Xulosa qilib aytganda, u nohaqlikka yovuzlik bilan emas, balki ezgulik bilan javob berish orqali **insoniylikdan ilohiylikka** ko'tariladi.

Svetlogubning bu holati tasavvufdagi “nafsni yengish” va “fano” (o'zligidan kechib, Haqqa erishish) tushunchalari bilan juda uyg'un. Tasavvufda ham inson dunyoviy g'arazlardan, nafrat va intiqom hissidan voz kechib, mutlaq muhabbat orqali Yaratganga talpinadi. Svetlogubning jallodni kechirishi - tasavvufdagi “yomonlikka yaxshilik qaytarish” hamda Xudoning tajallisini ko'rish (hamma narsaga rahmat nazari bilan boqish) maqomiga o'xshaydi. Tolstoy qahramoni ham so'fiy kabi zohiriy zindondan qutulib, botiniy hurlikka erishadi; uning uchun o'lim fojia emas, balki ilohiy haqiqat bilan birlashishni anglatadi.

“Tirilish” (“Воскресенье”) romanida ham gumanizm g'oyalari hamohang bo'lib, insonning gunohdan poklanishi, ma'naviy uyg'onishi va ilohiy haqiqatga intilishi masalalarini keng yoritadi. Ushbu romanni tasavvuf ta'limoti nuqtayi nazaridan tahlil qilish, undagi ichki ruhiy jarayonlarni yanada chuqurroq anglash imkonini beradi (Толстой, 1986). Tasavvufda insonning ruhiy kamoloti **“sayru suluk”** - bosqichma-bosqich ma'naviy yuksalish jarayoni sifatida qaraladi. “Tirilish” romani aynan shu jarayonning badiiy ifodasidir.

Roman qahramoni knyaz **Nexlyudov** boshida boy, mansabdor, hayotiy zavqlarga berilgan inson sifatida tasvirlanadi. Uning **Katyusha Maslovaga** qilgan zulmi (*uni aldab tashlab ketishi*) keyinchalik ruhiy iztiroblarining boshlanishiga sabab bo'ladi. Nexlyudov sudda Maslovani ko'rib, o'z gunohini anglaydi. Bu holat

tasavvufdagi **tavba** bosqichiga to‘g‘ri keladi. Tasavvuf ta’limotida tavba-gunohni anglash, uni tan olish va undan qaytishni anglatadi. Nexlyudovda aynan shu uch bosqich kuzatiladi: anglash - u o‘z qilmishini tushunadi; azob - vijdoni qiynaladi, qaytish - u o‘z hayotini o‘zgartirishga qaror qiladi. Bu jarayon Jaloliddin Rumi hikmatini eslatadi, ya’ni gunoh insonni halokatga emas, agar u anglansa - kamolotga yetaklaydi. Asar qahramonining keyingi yo‘li - nafsga qarshi kurashdir: boylikdan voz kechishga harakat qiladi, o‘z mulkini dehqonlarga berishni o‘ylaydi, oddiy hayotni tanlaydi. Bu tasavvufdagi **mujohada** - nafs bilan kurash bosqichiga mos keladi. Biroq Tolstoy bu jarayonni ideallashtirmaydi. Nexlyudov ba’zan ikkilanadi, o‘zini oqlashga harakat qiladi, ichki ziddiyatdan chiqolmaydi. Bu juda muhim nuqta: tasavvufda ham **nafs bilan kurash** bir zumda emas, balki uzoq va og‘ir davom etadigan jarayondir.

Katyusha Maslova obrazi asarda “mazlumlik” va ruhiy poklik ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Tashqi jihatdan gunohkor, jamiyat tomonidan rad etilgan ayol sifatida ko‘rinadi. Ammo Tolstoy uning ichki dunyosida samimiylik, muhabbat, poklik saqlanib qolganini ko‘rsatadi. Tasavvufda ham botiniy, ya’ni ichki ma’naviy go‘zallik muhim o‘rin tutadi. Sufiylar fikricha, Alloh insonning tashqi ko‘rinishiga emas, qalbiga razm soladi.

Lev Tolstoyning “Uch hayot” (*Three Deaths*) hikoyasi ham inson hayoti va o‘limi masalasini falsafiy jihatdan yorituvchi chuqur ramziy asarlardan biridir. **Asarda uch xil o‘lim** - boy ayol, oddiy aravakash (yoki dehqon) va daraxt o‘limi orqali insonning ruhiy holati, hayotga munosabati va ilohiy haqiqatga munosabati ochib beriladi. Tolstoy uch xil o‘limni qarama-qarshi qo‘yish orqali insonning ma’naviy darajasini ko‘rsatadi. Mazkur hikoyani tasavvuf nuqtayi nazaridan tahlil qilganda, unda *nafs, tavba, qanoat va ilohiy uyg‘unlik* kabi tushunchalar aniq namoyon bo‘ladi (Толстой, 1987).

Boy ayol o‘limi nafs va qo‘rquv timsoli sifatida ochib beriladi. U o‘limdan qo‘rqadi, og‘ir kasal bo‘lsa-da, o‘limni tan olmaydi, ruhiy jihatdan bu holatga tayyor bo‘lmaydi. Bu holat tasavvufda **nafsga berilish** sifatida talqin qilinadi. Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra, nafsga berilgan inson: o‘limni inkor etadi, dunyoviy hayotga haddan tashqari bog‘lanadi, ilohiy haqiqatdan uzoqlashadi. Boy ayol o‘limni fojia sifatida qabul qiladi. Chunki u hayotining ma’nosini moddiylikda ko‘radi.

Ikkinchi obraz - oddiy aravakash (yoki dehqon), **qanoat va taslim bo‘lish** timsoli. Uning o‘limi mutlaqo boshqacha. U o‘limni tabiiy qabul qiladi, qo‘rqmaydi, hayotdan norozi bo‘lmaydi. Bu holat tasavvufdagi **qanoat** va **taslim (tavakkul)** tushunchalariga mos keladi. Tasavvufda komil inson taqdirni qabul qiladi, Alloh irodasiga bo‘ysunadi va o‘limni tabiiy jarayon sifatida ko‘radi. Oddiy inson o‘limida

ichki osoyishtalik, ruhiy tayyorgarlik, soddalik mavjud. Bu esa uni ilohiy haqiqatga yaqinlashtiradi.

Uchinchi obraz daraxt - poklik, tabiiylik, rozilik ramzi. Hikoyadagi uchinchi o‘lim - daraxtning kesilishi. Bir qarashda bu oddiy holatdek ko‘rinadi, ammo Tolstoy bu orqali chuqur ramz yaratadi. Daraxt qarshilik ko‘rsatmaydi, shikoyat qilmaydi, tabiat qonuniga bo‘ysunadi. Bu tasavvufdagi eng oliy holat - ilohiy uyg‘unlik (vahdat)ni eslatadi. Tasavvuf falsafasida inson tabiat bilan uyg‘un, tabiat qonunlariga qarshi borilmaydi. Unda nafs ham, qo‘rquv ham yo‘q.

Demak, har uchala obrazni tahlil qilsak, boy ayol - o‘limdan qo‘rqadi - ruhiy tushkunlik, oddiy askar xotirjam qabul qiladi, daraxt - uyg‘unlashadi. Tasavvufda bu bosqichlar *nafs, tariqat, haqiqat* bosqichlariga to‘g‘ri keladi. Bu jihatdan **Lev Tolstoyning “Uch hayot”** asari tasavvufiy g‘oyalarga juda yaqin bo‘lib, insonning haqiqiy kamoloti nafsni yengishda ekeninin anglatadi, qanoatli, sabrli, taqdirga rozi bo‘lishga chaqiradi.

“Ota Sergiy” asarida esa insonning nafs bilan kurashi yanada yaqqolroq ochib beriladi. Qahramon dunyoviy hayotdan voz kechib, ruhiy poklanishga intiladi. Ammo Tolstoyning fikricha, tashqi zohidlik yetarli emas. Asl poklanish ichki, botiniy o‘zgarish bilan bog‘liq. Bu qissa tasavvufdagi nafs balosi, riyozat va ixlos tushunchalari bilan juda hamohanglik kasb etadi. Yozuvchi bu asarda insonning ilohiy haqiqatga yetishish yo‘lidagi eng katta dushmani - uning o‘z nafs va kibri ekanini ko‘rsatib beradi (Толстой, 1987).

Asar qahramoni **knyaz Kasatskiy** hamma narsadan voz kechib, tarkidunyochilik (zuhd) yo‘lini tanlaydi. Bu tasavvufdagi **tavba va dunyo zavqlaridan** qalbni uzish maqomiga o‘xshaydi. U o‘z nafsini jilovlash uchun yillar davomida uzlatda yashaydi. Ota Sergiy avliyo sifatida shuhrat qozongach, uning qalbida riyo (odamlar ko‘rsin degan niyat) paydo bo‘ladi. Tasavvufda eng katta xavf - ibodatning Alloh uchun emas, odamlar maqtovi uchun qilinishidir. Sergiy o‘zining mo‘jiza ko‘rsatish qobiliyatini emas, balki odamlar nazaridagi obro‘sini yo‘qotishdan qo‘rqadi. U gunohga botganidan so‘ng, haqiqiy najotni zavqini mashhur avliyo bo‘lishda emas, balki oddiy darbadar bo‘lishda topadi. Bu tasavvufdagi **“malomatiylik”** tariqatiga yaqin bo‘lib, inson o‘z kibrini o‘ldirish uchun odamlar nazarida past bo‘lishni ixtiyor qiladi. Asar oxirida Sergiy haqiqiy “avliyo” deb o‘zi bilgan Pashani tan oladi. Pasha hech qanday mo‘jiza ko‘rsatmaydi, u shunchaki fidoyi, kamtar va o‘zini hech kimdan ustun qo‘ymaydi. Bu tasavvufdagi faqirlik maqomiga va g‘oyalarga mos keladi.

“Anna Karenina” romanida muhabbat va ehtiros masalasi murakkab tarzda yoritiladi. Anna obrazi orqali muallif nafsga asoslangan muhabbatning fojiviy oqibatlarini ko‘rsatadi. Roman va tasavvuf falsafasi o‘rtasidagi konseptual yaqinlik, eng avvalo, nafs evolyutsiyasi va ilohiy haqiqatni qidirish motivlarida namoyon

bo‘ladi. Romanning markaziy qahramoni Konstantin Levin prototipi tasavvufdagi “solik” (yo‘lovchi) maqomiga monand bo‘lib, u ratsionalizm inqirozidan so‘ng botiniy mushohada va kibrni sindirish (nafsni jilovlash) orqali ma‘naviy xotirjamlikka intiladi. Anna obrazi esa, aksincha, tasavvufiy tushunchadagi majoziy ishqning nafs asirligiga aylanishi va mutlaq haqiqatga yo‘naltirilmagan hissiyotning inson ruhini halokatga (fano) olib kelishini badiiy jihatdan isbotlaydi (Толстой, 2010).

Anna Karenina baxtli bo‘lishga loyiq edi. Tasavvuf nuqtayi nazaridan, Annaning fojiasi uning “baxtga loyiqligi”da emas, balki baxtni qayerdan va qanday izlaganida ko‘rinadi. Tasavvuf falsafasi uning harakatlariga quyidagi mezonlar orqali baho beradi: Tasavvufda inson baxti uning o‘z nafsini jilovlashi va ilohiy ishqqa intilishi bilan o‘lchanadi. Anna esa o‘z baxtini butunlay majoziy ishqqa (Vronskiyga bo‘lgan hissiyotga) va nafsiy ehtiyojlariga bog‘lab qo‘ydi. Tasavvuf ta‘limotiga ko‘ra, o‘tkinchi (foniy) narsaga bog‘langan har qanday qalb oxir-oqibat azobga mahkumdir. Anna baxtni o‘zidan tashqarida, boshqa bir insonning qalbida qidiradi, vaholanki, haqiqiy xotirjamlik faqat botiniy poklanish va vijdon softligi orqali topilishi mumkin edi. Shu ma‘noda, uning harakatlari tasavvufda “nafsga asirlik” deb baholanadi; u o‘z hislariga qarshi tura olmaydi va natijada halokatiga sabab bo‘ldi.

Anna Karenina uzoq vaqt davomida ijtimoiy qoliplar va yolg‘on munosabatlar (“svet” jamiyati) ichida yashashga majbur bo‘ladi. Bu botiniy ikkiyuzlamachilik uning ruhini charchatadi. Tasavvufiy nuqtayi nazardan, u o‘z “men”ini topishga urinadi, biroq bu urinish ma‘naviy yuksalish orqali emas, balki ijtimoiy va axloqiy qoidalarni buzish (isyon) orqali bo‘lgani uchun, u o‘zini anglash o‘rniga butunlay yo‘qotdi. Uning o‘limi — nafs isyonining eng yuqori nuqtasi va ruhning foniy dunyo yukini ko‘tara olmasligining ramziy tasviridir. Xulosa qilib aytganda, tasavvuf uni ayblashdan ko‘ra, to‘g‘ri yo‘lni topa olmagan, adashgan ruh sifatida ko‘radi. U baxtga loyiq edi, lekin baxtni dunyoviy ehtiroslardan izlagani uning fojiasi bo‘ladi.

Lev Tolstoyning “**Mening e‘tiqodim nimada**” («В чем моя вера») asarida muallif rasmiy diniy qoidalarni tanqid qilib, haqiqiy imonni insonning ichki dunyosida, axloqiy poklik va muhabbat orqali anglash zarurligini asoslaydi. Ushbu yondashuv tasavvufdagi **botiniy ma‘rifat** konsepsiyasiga yaqin bo‘lib, unda ilohiy haqiqatga erishish tashqi marosimlar orqali emas, balki qalb pokligi va ichki ruhiy uyg‘onish orqali amalga oshishi ta‘kidlanadi. Tolstoy zo‘ravonlikni inkor etib, sabr, mehr va kechirimlilikni asosiy tamoyil sifatida ilgari suradi, bu esa sufiylikdagi ishq va insonparvarlik g‘oyalari bilan mushtarakdir (Толстой, 1957).

“**Xudo podsholigi insonning ichki olamidadir**” (“Царство Божие внутри вас”) asarida esa muallif ilohiylikni insonning ichki olami bilan bog‘laydi va haqiqiy e‘tiqod tashqi shakllardan mustaqil ravishda qalbdan namoyon bo‘lishini

ta'kidlaydi. Bu qarash tasavvufda keng tarqalgan "inson qalbi - Haq maskani" degan g'oya bilan uyg'unlashadi. Tolstoy ham aynan ichki ma'naviy kamolotni inson hayotining asosiy maqsadi sifatida talqin qiladi (Толстой, 1957).

Mazkur ikki asarda ham nafsni tiyish, dunyoviy manfaatlardan voz kechish va zohidona hayotga intilish g'oyalari muhim o'rin egallaydi. Bu jihatlar tasavvufdagi nafsni poklash va zuhd tushunchalari bilan bevosita bog'liqdir. Tolstoy insonni ichki axloqiy o'zgarish orqali kamolotga erishishga undaydi, bu esa sufiylikdagi komil inson konsepsiyasiga hamohangdir. Uning qarashlariga ko'ra, chin ma'nodagi hayot insonning o'z ustida ishlashi, ruhiy poklanishi va boshqalarga nisbatan mehr-oqibat bilan munosabatda bo'lishida namoyon bo'ladi. Tolstoyning ushbu asarlari mazmunan tasavvufiy qarashlarga yaqin bo'lib, ularda insonning ichki kamoloti, muhabbat va ruhiy poklik markaziy o'rin tutadi. Shu bois mazkur asarlar nafaqat diniy-falsafiy meros sifatida, balki universal ma'naviy qadriyatlarni ifodalovchi muhim manbalar sifatida ham baholanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Tolstoy ijodi tasavvufiy g'oyalar bilan bevosita bog'liq bo'lib, insoniylik va ilohiylik muammosini yuksak badiiy darajada ochib beradi. Adib asarlarida ilgari surilgan insoniylik, vijdon, muhabbat va ma'naviy poklanish g'oyalari tasavvuf ta'limotidagi komil inson konsepsiyasi bilan hamohanglik kasb etadi. Har ikki manbada ham insonning haqiqiy kamoloti nafaqat bilimda, balki amal va ichki poklikda namoyon bo'lishi ta'kidlanadi. Tolstoy insonni axloqiy tanlov oldida turgan mavjudot sifatida tasvirlab, uni ezgulik sari undaydi, tasavvuf esa uni nafsdan xalos bo'lib, ilohiy haqiqatga yetishga chorlaydi. Demak, yozuvchi qarashlari va tasavvufiy ta'limot o'rtasidagi uyg'unlik insoniyat uchun umumiy bo'lgan ma'naviy qadriyatlarning birligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бертельс Е. Э. Суфизм и суфийская литература. — М.: Наука, 1965. — 524 с.
2. Корбен А. История исламской философии. — М.: Прогресс, 2010.
3. Кузнецова Т. В. Мотив светлого и тёмного в рассказе Лев Николаевич Толстой «Божеское и человеческое» // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2016. – № 6 (60). – С. 94–96.
4. Печурова Е. А. Публицистические особенности повести Лев Николаевич Толстой «Божеское и человеческое» // Язык и литература. – 2014. – № 3. – С. 118–121
5. Гудзий Н. К., Серебровская Е. С. Божеское и человеческое // Толстой Л. Н Полное собрание сочинений: в 90 т. – М.: Художественная литература, 1957. – Т. 42: Круг чтения (1904–1908). – С. 645-665.

6. Толстой Л. Н. Тирилиш. — Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.
7. Толстой Л. Н. Анна Каренина. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2010.
8. Толстой Л. Н. Ота Сергей // *Ҳикоялар ва қиссалар*. — Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.
9. Толстой Л. Н. Уч ўлим // *Ҳикоялар*. — Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.
10. Толстой Л. Н. В чем моя вера. Полное собрание сочинений: в 90 т. – М.: Художественная литература, 1957. – Т. 23. – С. 304-469.
11. Толстой Л. Н. Царство Божие внутри вас . Полное собрание сочинений: в 90 т. – М.: Художественная литература, 1957. – Т. 28. – С. 1-294.
12. Schimmel A. *Mystical Dimensions of Islam*. — Chapel Hill: University of North Carolina Press, 1975.
13. Knysh A. *Islamic Mysticism: A Short History*. — Leiden: Brill, 2000.

REFERENCE:

1. Bertels E. E. (1965). *Sufism and Sufi Literature*. М.: Nauka, 524 p.
2. Corbin A. (2010). *History of Islamic Philosophy*. М.: Progress.
3. Kuznetsova T. V. (2016). The motif of light and dark in Leo Tolstoy’s story “The Divine and the Human” // *Philological Sciences. Questions of theory and practice*. No. 6 (60). - P. 94-96.
4. Pechurova E. A. (2014). Publicistic Features of Leo Tolstoy’s Novella “The Divine and the Human” // *Language and Literature*. No. P. 118-121.
5. Gudziy N. K., Serebrovskaya E. S. (1957). *Divine and Human* // Tolstoy L. N. Complete Collection of Works: in 90 vols. М.: Fiction. Vol. 42: Reading Circle (1904-1908). - P. 645-665.
6. Tolstoy L. N. (1986). *Tirilish*. Tashkent: Gafur Gulom Literature and Art Publishing House.
7. Tolstoy L. N. (2010). *Anna Karenina*. Tashkent: New Century Generation.
8. Tolstoy L. N. (1987). *Father Sergius* // *Stories and Tales*. Tashkent: Gafur Gulom Literature and Art Publishing House.
9. Tolstoy L. N. (1987). *Three Deaths* // *Stories*. Tashkent: Gafur Gulom Literature and Art Publishing House.
10. Tolstoy L. N. (1957). *What is my faith*. Complete Works: in 90 vols. М.: Fiction, Vol. 23. - P. 304-469.
11. Tolstoy L. N. (1957). *The Kingdom of God is within you*. Complete Works: in 90 vols. М.: Fiction, Vol. 28. P. 1-294.
12. Schimmel A. (1975). *Mystical Dimensions of Islam*. Chapel Hill: University of North Carolina Press.
13. Knysh A. (2000). *Islamic Mysticism: A Short History*. Leiden: Brill.